

Kimyo darslarida zamonaviy usullar va ulardan foydalanishning ahamiyati

Egamberdiyeva Moxigul Biraliyevna

*Andijon viloyati Ulug'nor tumani 5-umumiy o'rta ta'lif maktabi
kimyo fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada kimyo darslarida zamonaviy usullar va ulardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan bo'lib, unda bir qancha zamonaviy usullar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: zamonaviy usullar, murakkab, integratsiya, elementlar, texnik vosita

Kimyo darslarida zamonaviy usullarning turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyoragarlik ko'rildi. Zamonaviy usullarda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular darslarda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat. Dars mashg'ulotlarida vaqtadan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Fan-texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi globallashuv davrida umumiyligi o'rta ta'lif maktablari kimyo fani o'qituvchilarining zimmasiga ham nihoyatda mas'uliyatli vazifalarni yuklab qo'ymoqda. O'quvchilarga kimyo fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlarni tatbiq qilish, innovatsiyalardan foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini shakllantirish hamda darslarida zamonaviy ta'lif vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish, ya'ni texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interfaol ta'lif usullaridan foydalanish hozirgi kun talablaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida o’qitishning zamonaviy metodlari keng qo’llanilmoqda. O’qitishning zamonaviy metodlarini qo’llash o’qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ushbu buyuk vazifalarni amalga oshirish yo'lida barcha fanlar qatori kimyo fanining ham o'rni kattadir.

“Toza doska” usuli. Bunda o’rganilagan mavzu yuzasidan o’quvchilar egallagan bilimlarini sinash maqsadida doskaga oldindan tayyorlab qo’yilgan turli savollar, rasmlar, jadvallar yoziladi va yopishtirib chiqiladi. Darsda sust qatnashgan o’quvchilar uchun imkoniyat beriladi:

Farmaldegid



Formaldegid, rangsiz, o’tkir qo’lansa hidli oddiy aldegiddir. Uning 40% li eritmasi formalin deb ataladi. Formalin eritmasi tibbiyotda bakteristid vosita sifatida va biologik preparatlarni saqlashda ishlataladi..

Formaldegid bug’lari ko’z, burun va yuqori nafas olish yollariga qozg’atuvchi ta’sir ko’rsatib, toshma, bosh og’rig’i, bosh aylanishi va umuiy holsizlik keltirib chiqadi.

Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o’zlashtirish darajasi o’sishiga olib keladi. Umumiy o’rta maktablarida kimyo fanidan ta’lim berish, uning fan-texnika taraqqiyotida, ishlab chiqarish sohalari va kundalik hayotda tutgan o’rni bilan belgilanadi.

“BREYN RING” usuli. Texnologiya ikki raundda o’tkaziladi. Har bir raunda oltita topshiriq mujassamlashtiriladi. O’qituvchi slaydlarni namoyish etib, topshiriqni ikki marotaba o’qiydi. So‘ng: “vaqt ketdi” jumlasini ishlatadi. Shundan so‘ng guruh o’quvchilari topshiriqni bajarishga kirishadi. Topshiriq bajarilgach, guruhdagi o’quvchilar qo’llarini ko’tarib xabar berishlari shart. Har bir guruhdan spiker

(boshlovchi) tanlanadi. Spiker doskada bajarilgan topshiriqni izohlab berishi lozim. Birinchi raundda so‘ng reklama e’lon qilinadi. Bu reklama – uyga berilgan vazifani tasviriy so‘z vositalari asosida ifodalashdan iborat. Reklama uchun 1 daqiqa vaqt ajratiladi. Ikkinci raundda faoliyat baholanadi. Har bir to‘g‘ri izohlangan javob uchun-2 ball, to‘liq bo‘lmagan javoblar uchun 1 ball. Noto‘g‘ri javoblar uchun 0 ball belgilanadi. Umumiylar yig‘indisi guruhlarga taqdim etilgan jamoaviy nazorat varoqlariga tushuriladi. O‘qituvchi faollarni baholaydi.

“TO‘G‘RISINI TOP ” METODI

| | | | |
|--|--|--|--|
| | Yuvish mumkin emas | | Quruq tozalash taqiqlanadi. Dog‘larni tozalash man etiladi. |
| | Belgilangan haroratda yuvish, chayish, siqish mumkin. | | 110 °C haroratda dazmollash mumkin. |
| | Faqat qo‘lda yuvish tavsiya etiladi. | | Dazmollash mumkin emas. |

02.06.2023

“Kim topadi” o‘yini. Doskaga bitta element yozib ko‘rsatiladi. O‘quvchi shu element qaysi harflarda bo‘lsa, o‘sha harflarni doskaga yozishi kerak. Masalan, O, A, B, D lotin yozuvidagi o‘xshash elementli harflar sirasiga kiradi. Bu o‘yin musobaqa tarzida uyushtirilishi ham mumkin. Musobaqa so‘ngida kim shu elementli harflarni to‘g‘ri va ko‘p yozganligi hisobga olinadi.

Xullas, maktablarda fanlarni o‘qitish jarayonida fan-texnika taraqqiyoti, muhandislik, matematika va kundalik hayot bilan bog‘lab o‘rganish ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning dolzarb masalasidir. Kimyo darslarida o‘quvchilarning yoshi, psixo-fiziologik xususiyatlari, umumiylar o‘rtacha ta’lim tayyorgarligiga mos hamda

tarixiy materiallarni asta-sekin, oddiydan murakkabga tomon borish asosida fandan iqtidorli o‘quvchilar bilan ishslash ta’lim jarayonini takomillashtirish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, o‘quvchilardagi qobiliyat va iste’dodni yanada kamol toptirishda o‘quvchilar kompetensiyalarini shakllantirish lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. «Kimyo» kitobi. I.R Asqarov, Sh X. Abdullayev. O. Abdullayev .T 2017-yil.
2. Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalari.
3. Internet saytlari: www.Ziyonet.uz ,www.edu.uz